



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH AN‘ANALARI, MOHIYATI, TUZILMASI VA ILMIY TAMOYILLARI

Raimova Mehriniso

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti

Bugungi globallashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta’lim sohasining rivojlanishiga bog‘liq. Ta’lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni texnologiyalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o‘rin olgan. Bugungi kunda o‘qituvchilarning oldiga qo‘yilayotgan talab ham aynan buning isbotidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur..” deb ta’kidlab o‘tganlar. Buning uchun prezidentimiz tomonidan barcha imkoniyatlar va qulayliklar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirishda ta’limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy-metodik asoslari yetakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimida ixtisoslik o‘quv predmetlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki ixtisoslikka oid kasbiy va shaxsiy kompetentlik (bilim, ko‘nikma va malakalar) asosan ixtisoslik o‘quv predmetlarini o‘rganish jarayonida shakllantiriladi. Bugungi kunda pedagogika fanlarini o‘qitishda o‘quv fani tegishli yo‘nalishda oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy-pedagogik sifatlarni shakllantirish, ularni kasbiy tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy sharoitda fanni o‘qitish o‘qituvchi kadrlarni ilmfan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg‘or yutuqlar, umuminsoniy g‘oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarkib toptirish, tarbiyachi, o‘qituvchi hamda yoshlar murabbiysi sifatida pedagogik jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan.

Fanni olib borishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, o‘quv-uslubiy majmualar, monografiyalar, xorijiy va respublikamizning yetakchi olimlari ilmiytadqiqot natijalaridan foydalaniladi. Fanning o‘qitish dasturda ko‘rsatilgan



mavzular ma'ruza, amaliy (yoki seminar, laboratoriya) kurs ishi mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim shaklida olib boriladi.

Talabalarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish, pedagogik faoliyat mazmuni, ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda pedagogik tafakkurni, ijobiy fikrlash qobiliyatini, ta'lim oluvchilar bilan muvafaqqiyatli ishlashga doir zarur malakalarni, vaziyatni to'g'ri baholash, oqilona qarorlarni qabul qilish, ularni maqsadga muvofiq tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, milliy pedagogik meros g'oyalari, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ta'lim muassasalari amaliyotiga maqsadli tatbiq etish tajribasini hosil qilishdan iborat.

Kreativ fikrlash ko'nikmasidan o'quvchilar individual va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ham foydalanadilar. Ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'limida muammoga ijtimoiy ravishda yondashiladi. Bunda mavjud muammoga ijtimoiy jihatidan qaraladi, ya'ni muammo shaxsiy, ta'limiy hamda ijtimoiy globaligidan qat'iy nazar har bir shaxsning ehtiyojlariga yechim topish yo'llari izlab topiladi. Bu sohada o'quvchilarning kreativ fikrlashi orqali innovatsion, global muammolarning amaliy yechimi, ijtimoiy guruh ehtiyojlarini aniqlash, o'zgaralar fikriga ijobiy munosabat bildirish kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish doirasida tuzilgan testlardagi topshiriqlarni bajaruvchi o'quvchilardan, qo'yiladigan muammo shaxsiy yoki global bo'lishidan qat'iy nazar muammoga ijtimoiy yechim topiladigan g'oyalarni to'plash talab etiladi.

Ilmiy sohadagi kreativ fikrlash quyidagi usullar orqali vujudga kelishi mumkin: farazni oshiradigan tajribalar doirasida, bilimni rivojlantiradigan g'oyalar asosida, amaliy qiziqishni oshiradigan g'oyalarni olg'a surish, ixtirolar va yangicha muhandislik rejalarini ishlab chiqish kabilar. Beriladigan so'rovnoma sessiyalarida o'quvchilar xohlagan usuldagi materiallar bilan istagan tajribani bajarish va yangi ixtirolarni kashf etishlari mumkin bo'ladi. Ilim-fan sohasida kreativ fikrlash ilmiy izlanish ko'nikmalariga uzviy bog'langan. Ilmiy muammolarni yechimini topishga doir berilgan mashg'ulotlar har xil ilmiy kontekstlarda kreativ fikrlashning xilma-xil jihatlarini o'z ichiga oladi. Bunda o'quvchilar ilmiy kontekstdagi ochiq turdagi muammoni yechimini topishga doir mashg'ulotlarni bajarishi, berilganlardan foydalanib, ilmiy ma'nodagi farazlarni beradigan fikr va g'oyalarni olg'a surishi yoki muammo yechimi va tajribalarni o'zgartiruvchi taklif berishi kerak bo'ladi. Interfaol simulyatsiyalar va o'yinlar ilmiy muammoni yechimini topishda kreativ fikrlashni baholashda yaxshi natija beradigan usullar qatoriga kiradi, sababi shundaki bu kabi muhitlar o'quvchilarning shaxsiy tanlagan tanlov hamda harakatlariga bildiradigan fikrini bilish, ularning bildiradigan munosabatiga qarshi harakatlari, ilmiy innovatsiyalar bilan belgilanadigan uddalay olmaslik va kashf etadigan jarayonida ularning ishtiroki orqali mana shunday baholash imkoniyatlarini bera oladi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 213-modda, 22-son, 406-modda.



2. Babadjonov S.S. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish global ijtimoiy muammo sifatida. – T.: -Pedagogika|| ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2017 yil 2-son, 79 b.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish G.Ravshanova Innovative Development in Educational Activities. (ISSN:2181-3523) Vol.2.No.5(2023) MARCH 334-340- betlar.

4. O'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mediata'lim texnologiyalarining o'rnini G.Ravshanova "Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbiqlari: muammolar va yechimlar" Respublika ilmiyamaliy anjumani (Jizzax shahri, 2022 yil 5-oktabr) 225-231-betlar.

5. A. A. Ismoilov, X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov "Kreativ fikrlashni baholash". Toshkent- 2021